



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№4



2026

ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TO'LOV INFRATUZILMASINI SHAKILLANISHI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI: TARIXIY, ILMIY HAMDA BOZOR TAHLILI	32
A.A. Akbarov, X.R. Aliyev	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISHNING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI.....	42
Karayev Payzillaxon Yusufxonovich	
TURIZM KORXONALARINING INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY AKTIVLARINING ROLI.....	47
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKOLOGIK SOLIQLAR VA TO'LOVLAR TIZIMI TAHLILI	53
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich, Abdolnizozov Murodbek Madiyarovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA IJTIMOYIY HIMOYA TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLAR VA TIZIMGA KIRITILAYOTGAN O'ZGARISHLAR.....	59
Kasimova Gulyar Axmatovna, Aripova Kamola Botir qizi	
MINTAQAVIY RIVOJLANISHNI KOMPLEKS BAHOLASH VA PROGNOZLASHDA EKONOMETRIK VA SUN'IY INTELLEKT USULLARINING INTEGRATSIYASI	64
Namazov Gafur Shokulovich	
BALIQCILIK SUBYEKTLARINI RIVOJLANTIRISHDA DUNYO MAMLAKATLARINING O'RNI	69
Beglayev Uchqun Xurramovich	
KAMBAG'ALLIK FENOMENINING IJTIMOYIY-IQTISODIY VA NAZARIY-KONTSEPTUAL ASOSLARI	75
Musulmonova Shahlo Nasriddinovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA HISOB VA BIZNES JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI	81
Artikova R.A.	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA DIVIDEND TO'LASH QOBILİYATI KOEFFITSIYENTINING MAQBUL ORALIG'INI ANIQLASH VA UNING INVESTITSION SAMARADORLIKKA TA'SIRI.....	88
Ibragimov G'anjion G'ayratovich	
STRATEGIES TO RAISE AWARENESS OF NATURAL POLLUTION AMIDST RISING POPULATION DENSITY AND GDP PER CAPITA IN UZBEKISTAN	93
Axliddin Aroplitdinovich Valiyev, Askarov Farhod Rakhmatovich	
РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ESG-ОРИЕНТИРОВАННОМ РАЗВИТИИ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ.....	99
Айматова Фариди Хуразовна	
KORXONALARDA INVESTITSION FAOLIYATINI RIVOJLANISHINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	107
Shukurillaev Jahongir Botir o'g'li	
DEHQON XO'JALIKLARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA KREDITLAR MIQDORINI DIFFERENSIYALLASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR	113
Xakimov Zafar Ibragimovich	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI	118
Tadjimirzayev Anvar Abduvoxidovich, Batirova Raxima Abdujabborovna	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA HUDUDIY MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	124
Muhammadiyeva Nodira	
SUN'IY INTELLEKT DAVRIDA HUDUDIY RIVOJLANISHNI STATISTIK HISOBLASH METODOLOGIYASINI QAYTA BAHOLASH MEZONLARI (SCOPUS VA WEB OF SCIENCE DA INDEKSLANGAN ILMIY NASHRLAR TAHLILI ASOSIDA).....	131
Santjar Abdumurodovich Sattorov	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIY-IQTISODIY OMILLARI VA ISTIQBOLLARI	139
Allamuratova Perida Maxsetbaevna	



XORAZM VILOYATIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ROLI VA AHAMIYATI	144
Ro'zmatova Farahongiz Bekmurotovna, Yarmetova Nargiza Shiximbayevna	
AHOLINI IJTIMOYIY TA'MINOT TIZIMINING TAMOIYILLARI VA UNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARI	148
Xusanov Baxodir Sheraliyevich	
MAHALLIY VA XALQARO TURIZM BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI, TAMOIYILLARI VA MEXANIZMLARI	152
Alikulov Samar Abdurashidovich	
TRANSPORT XIZMATLARINING SOHALAR BO'YICHA TAQSIMOTI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TASNIFI	159
Karimova Shaxnoza Uktamovna	



KIRISH

Transport sektori zamonaviy iqtisodiyotning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, u ishlab chiqarish, savdo va xizmat ko'rsatish sohalarining uzviy qismini tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida yo'l-transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish va transport tizimida ustuvor vazifalarni belgilash maqsad qilib olingan. Mazkur vazifalar ijrosini ta'minlash uchun transport xizmatlarining sohalar bo'yicha taqsimoti va samaradorlik ko'rsatkichlarini ilmiy asosda o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro tajribada transport samaradorligini baholash ko'p qirrali yondashuvni talab qiladi. Xalqaro Energetika Agentligi (IEA) ma'lumotlariga ko'ra, transport sektori global energiya talabining taxminan 30 foizini tashkil etadi va iqtisodiy o'sishning muhim harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi [2]. J.-P. Rodrigue ta'kidlaganidek, transport samaradorlik ko'rsatkichlari nafaqat texnik parametrlarni, balki iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlarni ham qamrab olishi lozim. Shu bois, ushbu maqolaning maqsadi O'zbekiston transport xizmatlarining tarmoqlar bo'yicha taqsimotini tahlil qilish va samaradorlik ko'rsatkichlarining ilmiy asoslangan tasnifini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti – O'zbekiston Respublikasining transport sektori. Predmeti – transport xizmatlarining sohalar bo'yicha taqsimlanishi va samaradorlikni baholash ko'rsatkichlari tizimi. Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat: transport xizmatlarining iqtisodiy sektorlar bo'yicha taqsimotini aniqlash; tarmoqlararo bog'liqlik koeffitsiyentlarini hisoblash; samaradorlik ko'rsatkichlarining ilmiy tasnifini yaratish; amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Transport xizmatlari samaradorligini baholash masalasi ko'plab xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. S. Lahiri va W. Yao o'zlarining fundamental tadqiqotlarida AQSh transport sektori uchun iqtisodiy indikatorlar tizimini ishlab chiqqan va transport tsikllari bilan umumiy iqtisodiy tsikllar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni isbotlagan [4]. Ularning tahlili shuni ko'rsatadiki, transport sektori ko'pincha iqtisodiy tsikllardan oldin cho'qqiga chiqadi va ulardan keyin tushadi, bu esa transport ko'rsatkichlarining bashoratlash vositasi sifatidagi ahamiyatini oshiradi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida transport samaradorligini baholash bo'yicha ham salmoqli tadqiqotlar olib borilgan. M. Kamińska va hamkasblarining ishlarida yuk avtotransporti sektorining iqtisodiy-energetik-ekologik samaradorligi DEA (Data Envelopment Analysis) usuli yordamida baholangan [5]. Bu tadqiqotda 27 ta Yevropa Ittifoqi mamlakatining transport sektori taqqoslangan va samaradorlik darajalari bo'yicha uch guruhga ajratilgan. J. Ziolkowska va boshqalar energiya samaradorligini baholashda PGD (Product Generational Dematerialization) ko'rsatkichini taklif qilgan va Yevropa Ittifoqi miqyosida transport sektoridagi dematerializatsiya tendensiyalarini aniqlagan [6].

Integral samaradorlik ko'rsatkichlarini hisoblash bo'yicha I. Vikovych va hamkasblarining so'nggi tadqiqotlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ular an'anaviy baholash usullarini (masofa bo'yicha xarajat, yetkazib berish vaqti, ishonchlilik indeksleri) zamonaviy ko'p mezonli qaror qabul qilish yondashuvlari – DEA, AHP (Analytic Hierarchy Process) va TOPSIS bilan birlashtirish maqsadga muvofiqligini asoslagan [7].

De Borger va hamkasblarining transport samaradorligi bo'yicha keng ko'lamlı adabiyotlar sharhi shaharlardagi jamoat transporti tizimlarining samaradorlik va natijaviyligini baholashda 124 ta ilmiy ishni tahlil qilgan [8]. Ular texnik ko'rsatkichlar va iqtisodiy tahlil o'rtasidagi integratsiya zarurligini ta'kidlagan.

O'zbek olimlaridan M.Q. Pardayev transport servisiga inson, jamoa va davlat manfaatları nuqtayi nazaridan yondashib, transport xizmatlarining ko'p qatlamli mohiyatini ochib bergan. N. Shavkatov va S. Elmirzaev transport sohasida davlat-xususiy sheriklik munosabatlarining ilg'or xorij tajribalarini o'rganib, O'zbekistonda qo'llash istiqbollarini taklif qilgan [10]. M. Axmatovanning tadqiqotlarida turizm va transport xizmatlarining uzviy bog'liqligi tahlil qilingan va transport infratuzilmasining turizmga ta'siri raqamli dalillar bilan asoslangan [11]. Shuningdek, O'zbekistonda transport xizmatlari ko'rsatilishi tahlili bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda SWOT va PEST tahlillari yordamida temir yo'l korxonaları boshqaruv samaradorligini baholash metodikasi ishlab chiqilgan.

Yuqoridagi tadqiqotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, transport samaradorligini baholash bo'yicha xorijiy adabiyotlarda yetarli darajada ilmiy asos yaratilgan, biroq O'zbekiston transport sektori uchun sohalar bo'yicha taqsimot va samaradorlik ko'rsatkichlarining kompleks tasnifi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Ushbu maqola aynan shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolani yozishda bir qancha tadqiqot usullaridan foydalanilgan. Birinchidan, input-output tahlili (Leontief modeli) transport xizmatlarining boshqa iqtisodiy sektorlar bilan bog'liqligini raqamli aniqlash uchun qo'llanilgan.



Bu usul orqali tarmoqlararo bog'liqlik koeffitsiyentlari hisoblab chiqilgan va transport xizmatiga bo'lgan sektorlar talabi foiz hisobida ifodalangan [13].

Ikkinchidan, qo'shimcha qiymat tahlili (Value Added Analysis) transport sektorining iqtisodiyotga qo'shgan hissasini mehnat haqi, foyda, soliqlar va amortizatsiya komponentlari bo'yicha taqsimlash uchun ishlatilgan. Uchinchidan, qiyosiy tahlil usuli xorijiy mamlakatlar va O'zbekiston transport samaradorligi ko'rsatkichlarini solishtirish maqsadida qo'llanilgan. To'rtinchidan, umumiy omil unumdorligi (Total Factor Productivity – TFP) konsepsiyasi transport sektorining umumiy samaradorligini baholash uchun nazariy asos sifatida foydalanilgan [3, 14].

Ma'lumot manbalari sifatida O'zbekiston Davlat statistika qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi, Xalqaro Energetika Agentligi (IEA), Jahon Banki hamda xalqaro ilmiy jurnallardagi tadqiqotlar natijalaridan foydalanilgan. Statistika ma'lumotlar asosan 2023–2024-yillarni qamrab oladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston transport sektori milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biri hisoblanadi. 2024-yil yakunlariga ko'ra, transport sektori mamlakatning yalpi ichki mahsulotida 15,4 foiz ulushga ega bo'lib, 698 ming kishini ish bilan ta'minlagan [15]. Transport sektorining tarkibiy tahlili quyidagi jadvalda aks ettirilgan (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston transport sektorining tarkibi (2024)¹

Tarmoq	GDP hissasi (%)	Bandlik (ming kishi)	Kapital zaxira (mlrd so'm)	O'sish tempi (% yillik)
Avtomobil yo'l qurilish	2,8	145	2 450	8,5
Avtomobil transport	6,5	320	1 850	6,2
Temir yo'l infratuzilma	1,2	48	8 500	4,8
Temir yo'l operatsiyalar	2,6	78	4 200	5,5
Havo transport	0,8	12	1 200	12,5
Logistika xizmatlari	1,5	95	850	9,2
JAMI	15,4	698	19 050	7,1

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, avtomobil transporti GDPdagi ulushi bo'yicha (6,5%) eng yuqori ko'rsatkichga ega va 320 ming kishini ish bilan ta'minlaydi. Temir yo'l sektorida esa kapital sig'imi yuqori bo'lib, infratuzilma va operatsiyalar bo'yicha jami 12 700 mlrd so'm kapital zaxirasiga ega. Havo transporti eng yuqori o'sish sur'atini (12,5%) namoyish etmoqda, bu xalqaro parovozlar hajmining oshishi bilan bog'liq.

Transport xizmatlari deyarli barcha iqtisodiy sektorlar bilan chambarchas bog'liq. Input-output tahlil bu bog'liqlikni raqamli tarzda ko'rsatadi. Tadqiqot natijasida aniqlangan tarmoqlararo bog'liqlik koeffitsiyentlari quyidagi jadvalda keltirilgan (2-jadval).

2-jadval. Transport xizmatlarining tarmoqlararo bog'liqlik koeffitsiyentlari (O'zbekiston, 2024)²

Sektor	Transport xizmatiga talab (%)	Transportdan kelib chiqadigan qo'shimcha qiymat (%)	Bog'liqlik intensivligi
Qishloq xo'jaligi	18–22	4–5	Yuqori
Kon-metallurgiya	15–18	3–4	O'rtacha-yuqori
Paxta-to'quvchilik	12–15	3–4	O'rtacha-yuqori
Oziq-ovqat sanoati	20–25	5–6	Juda yuqori
Kimyo sanoati	10–14	2–3	O'rtacha
Qurilish	8–12	2–3	O'rtacha

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, oziq-ovqat sanoati transport xizmatlariga eng yuqori talabga ega bo'lib (20–25%), bu sohada bog'liqlik intensivligi "juda yuqori" darajada baholangan. Qishloq xo'jaligi ham 18–22 foizlik talab bilan transport xizmatlariga kuchli bog'liq. Kimyo sanoati va qurilish sektorlari nisbatan kamroq bog'liq bo'lib, ular asosan o'z ichki logistika tizimlaridan foydalanadi.

Transport sektorining qo'shilgan qiymati taqsimoti tahlili sektorning iqtisodiyotga qo'shayotgan real hissasini aniqlashga yordam beradi. 2024-yilda O'zbekiston transport sektorining jami qo'shilgan qiymati 35 500 mlrd so'mni tashkil etdi (3-jadval).

1 O'zbekiston Davlat Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

2 Muallif ishlanmasi

3-jadval. O'zbekiston transport sektorining qo'shilgan qiymati taqsimoti (2024)³

Komponent	Miqdor (mlrd so'm)	Ulushi (%)	O'zgarish (2023 ga nisbatan)
Mehnat haqi	12 500	35,2	+8,5%
Foyda (brutto)	15 800	44,5	+12,3%
Soliqlar (sof)	4 200	11,8	+6,8%
Amortizatsiya	3 000	8,5	+5,2%
JAMI	35 500	100	+9,6%

3-jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, foyda (brutto) qo'shilgan qiymatning eng katta qismini (44,5%) tashkil etadi va 2023-yilga nisbatan 12,3 foizga o'sgan. Mehnat haqi ulushi 35,2 foizni tashkil etib, sektor bo'yicha o'rtacha ish haqi darajasi barqaror o'sish tendensiyasida ekanligini ko'rsatadi. Soliqlar (sof) 11,8 foiz ulushga ega bo'lib, bu transport sektorining davlat budjetiga salmoqli hissa qo'shayotganidan dalolat beradi.

Samaradorlik ko'rsatkichlarining ilmiy tasnifi transport sektorini boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. J.-P. Rodrigue tomonidan taklif qilingan va keyinchalik boshqa tadqiqotchilar tomonidan rivojlantirilgan yondashuvga ko'ra [3, 7, 8], transport samaradorligi ko'rsatkichlarini beshta asosiy guruhga ajratish mumkin (4-jadval).

4-jadval. Transport samaradorlik ko'rsatkichlarining tasnifi⁴

Ko'rsatkich guruhi	Asosiy ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Qo'llanish sohasi
Texnik samaradorlik	Yuk/yo'lovchi zichligi, o'rtacha masofa	t-km, yo'l-km	Barcha transport turlari
Iqtisodiy samaradorlik	TFP, xarajat-foyda nisbati, daromadlilik	foiz, koeffitsient	Moliyaviy tahlil
Energetik samaradorlik	Energiya sig'imi, yoqilg'i sarfi	MJ/t-km, l/100 km	Ekologik baholash
Ijtimoiy samaradorlik	Qulaylik, xavfsizlik, bandlik	ball, koeffitsient	Davlat siyosati
Ekologik samaradorlik	CO ₂ emissiya, ifloslantirish	g CO ₂ /t-km	Barqaror rivojlanish

Texnik samaradorlik ko'rsatkichlari transport vositalarining yuk va yo'lovchi tashish qobiliyatini baholash uchun ishlatiladi. Bular orasida yuk yoki yo'lovchi zichligi (masofa birligiga to'g'ri keladigan yo'lovchilar yoki yuk birliklari soni) va o'rtacha bosib o'tilgan masofa kabi ko'rsatkichlar asosiy o'rin tutadi [3]. Iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari orasida TFP eng muhim vosita hisoblanadi. TFP agregatlangan kirishlar va chiqishlar nisbati bo'lib, unumdorlik o'sishining manbalarini aniqlash imkonini beradi [4, 14].

Energetik samaradorlik ko'rsatkichlari ayniqsa barqaror rivojlanish kontekstida muhim ahamiyat kasb etadi. IEA ma'lumotlariga ko'ra, yo'l transporti ichki energiya talabining deyarli 90 foizini tashkil etadi [2]. DEA usuli yordamida transport sektorining ko'p o'lchovli samaradorligini baholash keng tarqalgan amaliyot hisoblanadi. M. Kamińska va hamkasblarining tadqiqotlari DEA modelining kirish (mehnat resurslari, transport vositalari parki, yo'l tarmog'i uzunligi) va chiqish (daromad, yuk aylanmasi, CO₂ emissiyasi) parametrlari tizimini taklif qilgan [5].

O'zbekiston transport xizmatlarining sohalar bo'yicha taqsimotini tahlil qilish natijasida quyidagi rasm aniqlanadi: avtomobil transporti yuk tashish (78,5%) va yo'lovchi tashish (85,2%) bo'yicha mutlaq ustunlikka ega. Biroq daromad taqsimotida boshqa transport turlarining ulushi ancha yuqori, bu ularning qo'shimcha qiymat yaratish salohiyatini ko'rsatadi (5-jadval).

5-jadval. O'zbekiston transport xizmatlarining sohalar bo'yicha taqsimoti (2024)⁵

Transport xizmati turi	Yuk tashish ulushi (%)	Yo'lovchi tashish ulushi (%)	Daromad ulushi (%)	O'sish dinamikasi (%)
Avtomobil transporti	78,5	85,2	51,0	+6,2
Temir yo'l transporti	14,8	8,5	11,4	+5,5
Havo transporti	0,3	4,1	14,2	+12,5
Quvur yo'li transporti	5,2	–	13,1	+3,8
Boshqa (logistika va h.k.)	1,2	2,2	10,3	+9,2

3 O'zbekiston Davlat Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

4 Muallif ishlanmasi

5 Muallif ishlanmasi



5-jadvaldan ko'rinib turibdiki, avtomobil transporti yuk tashish hajmining 78,5 foizini va yo'lovchi tashishning 85,2 foizini tashkil etadi. Bu O'zbekiston sharoitida avtomobil transportining dominant roli bilan izohlanadi. Shu bilan birga, havo transporti daromad ulushida (14,2%) temir yo'l transportidan (11,4%) yuqori ko'rsatkichga ega bo'lib, bu havo transportining yuqori qo'shimcha qiymat yaratish xususiyatini aks ettiradi. Havo transporti shuningdek eng yuqori o'sish dinamikasiga ega (12,5%), bu O'zbekistonning xalqaro integratsiyalashuv jarayonlarining jadallashuvidan dalolat beradi.

Transport infratuzilmasining mintaqaviy rivojlanishdagi roli ham alohida ta'kidlash lozim. Marshall aglomeratsiya nazariyasiga ko'ra, geografik yaqinlik iqtisodiy agentlar o'rtasidagi aloqalarni osonlashtiradi va bilimlarning tarqalishi uchun qulay muhit yaratadi [16]. Biroq, haqiqatda bilim va innovatsiya faoliyati uchun qulay muhit juda kontekstga xos qoidalar, me'yorlar va ijtimoiy munosabatlarning o'ziga xos kombinatsiyasidan kelib chiqadi. Transport infratuzilmasi bu jarayonda hal qiluvchi vosita bo'lib, u mintaqalar o'rtasida ulanish, iqtisodiy integratsiya, xarajatlarni qisqartirish va aglomeratsiya effektini kuchaytirish funksiyalarini bajaradi.

Transport sektorida raqamlashtirish jarayonlari ham samaradorlik ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. IoT sensorlari, sun'iy intellekt va blokcheyn texnologiyalari transport logistikasini tubdan o'zgartirib, real vaqt rejimida kuzatish va optimallashtirish imkonini yaratmoqda [17]. O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi tomonidan raqamlashtirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar ham samaradorlik ko'rsatkichlarini yaxshilashga xizmat qilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijasida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi. Birinchidan, O'zbekiston transport sektori GDPning 15,4 foizini tashkil etib, 698 ming kishini ish bilan ta'minlaydi va iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ikkinchidan, transport xizmatlari deyarli barcha iqtisodiy sektorlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, oziq-ovqat sanoati (20–25%) va qishloq xo'jaligi (18–22%) eng yuqori bog'liqlik koeffitsiyentlariga ega. Uchinchidan, avtomobil transporti yuk va yo'lovchi tashish hajmi bo'yicha dominant rol o'ynaydi, biroq havo transporti eng yuqori o'sish dinamikasini (12,5%) va yuqori qo'shimcha qiymat yaratish salohiyatini namoyish etmoqda. To'rtinchidan, samaradorlik ko'rsatkichlarining besh guruhli tasnifi (texnik, iqtisodiy, energetik, ijtimoiy, ekologik) transport sektorini kompleks baholash uchun yetarli ilmiy asosni ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Transport samaradorligini baholashda DEA va TFP kabi zamonaviy ko'p o'lchovli usullarni keng joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bu usullar bir vaqtning o'zida bir nechta kirish va chiqish parametrlarini hisobga olish imkonini beradi va transport korxonalarining samaradorligini obyektiv baholashga yordam beradi.

2. Transport xizmatlarining sohalar bo'yicha taqsimotini optimallashtirish uchun intermodal transport tizimlarini rivojlantirish zarur. Avtomobil transportiga haddan tashqari bog'liqlikni kamaytirish va temir yo'l hamda havo transportining ulushini oshirish iqtisodiy samaradorlikni yaxshilaydi.

3. Transport sektorida raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish, ayniqsa IoT, sun'iy intellekt va ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish tizimlarini joriy etish samaradorlik ko'rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilash imkonini beradi.

4. Mintaqaviy transport infratuzilmasini rivojlantirish uchun davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish strategiyalarini ishlab chiqish tavsiya etiladi [10].

5. Ekologik samaradorlik ko'rsatkichlarini transport siyosatiga integratsiyalash, jumladan CO₂ emissiyasi va energiya sig'imini kamaytirish maqsadida elektr transportni rivojlantirish va barqaror harakatchanlik yechimlarini qo'llash zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/docs/5841063>
2. IEA. Energy Efficiency 2025: Transport. — Paris: International Energy Agency, 2025. — URL: <https://www.iea.org/reports/energy-efficiency-2025/transport>
3. Rodrigue, J.-P. The Geography of Transport Systems / J.-P. Rodrigue. — 5th ed. — New York: Routledge, 2020. — 456 p.
4. Lahiri, S. Economic indicators for the US transportation sector / S. Lahiri, W. Yao // Transportation Research Part E: Logistics and Transportation Review. — 2006. — Vol. 42, No. 1. — P. 1–29.
5. Kamińska, M. Economic, Energy and Environmental Efficiency of Road Freight Transportation Sector in the EU / M. Kamińska [et al.] // Energies. — 2023. — Vol. 16, No. 1. — Art. 461.
6. Ziolkowska, J. Energy efficiency in the transport sector in the EU-27: A dynamic dematerialization analysis / J. Ziolkowska, B. Simon // Energy Economics. — 2015. — Vol. 51. — P. 21–30.
7. Vikovych, I. Calculation of Integral Efficiency Indicators for Freight Transportation Routes in the United States / I. Vikovych, A. Obshta, V. Prykhodko // Transport Development. — 2025. — No. 4(27). — P. 108–121.



8. De Borger, B. Efficiency and effectiveness in the urban public transport sector: A critical review with directions for future research / B. De Borger, K. Kerstens, A. Costa // *European Journal of Operational Research*. – 2002. – Vol. 177, No. 2. – P. 594–621.
9. Pardayev, M. Q. Transport servisi va uning iqtisodiy mohiyati / M. Q. Pardayev // *Iqtisodiyot va ta'lim*. – 2020. – № 4. – B. 45–52.
10. Elmirzayev, S. E. Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarining ilg'or xorij tajribalari va mamlakatimizda qo'llash istiqbollari / S. E. Elmirzayev, N. Sh. Shavkatov // *Xalqaro moliya va hisob*. – 2023. – № 3. – B. 78–89.
11. Axmatova, M. E. Turizm va transport xizmatlarining bir-biri bilan uzviy bog'liqligi / M. E. Axmatova // *Iqtisodiyot va turizm: xalqaro ilmiy va innovatsion jurnal*. – 2021. – № 2(2). – B. 86–93.
12. Leontief, W. *Input-Output Economics* / W. Leontief. – 2nd ed. – New York: Oxford University Press, 1986. – 436 p.
13. Suleymanov, A. Assessment of Indicators of Economic Efficiency of Transport Logistics / A. Suleymanov // *International Journal of Innovative Technologies in Economy*. – 2021. – No. 1(33). – P. 1–12.
14. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Statistika ma'lumotlar: transport va aloqa. – Toshkent, 2024. – URL: <https://stat.uz>
15. Marshall, A. *Principles of Economics* / A. Marshall. – 8th ed. – London: Macmillan, 1920. – 871 p.
16. Transport sohasida transformatsiya jarayonlari: raqamlashtirishning raqamli iqtisodiyotdagi roli // *Nauka i innovatsiya*. – 2024. – № 11. – B. 45–58.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
